

Suyak sinishlarida shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishda immobilizatsion bog'lamlar turlari

Yakubov D.R., Mominov A.T., Turdiqulova N.T., Miyliyeva D.Y.

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

Annotatsiya

Suyak sinishlari shoshilinch tibbiyotda eng ko'p uchraydigan travmatik holatlardan biridir. Vaqtida va to'g'ri qo'yilgan immobilizatsiya bog'lamlari og'riqni kamaytiradi, siniq uchlarining siljishini oldini oladi va bemorni transportirovka qilishda xavfsizlikni ta'minlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, shoshilinch holatlarda eng samarali immobilizatsiya usullari Kramer shinalari, Dieterix shinalari va pnevmatik bog'lamlardir. Ular suyaklarning fiziologik holatini saqlab, asoratlarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: suyak sinishi, immobilizatsiya, Kramer shina, pnevmatik bog'lamlar, shoshilinch tibbiy yordam.

Muammoning dolzarbligi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyo bo'yicha 130 milliondan ortiq inson turli darajadagi suyak sinishlari bilan shoshilinch yordamga murojaat qiladi. Ularning 45–50 %ida immobilizatsiya noto'g'ri qo'yilishi sababli siniq uchlari siljishi, qon tomir va asablar shikastlanishi yoki yiringli asoratlarning rivojlanadi. Shoshilinch yordamda immobilizatsiya vositalarining to'g'ri tanlanishi bemorning keyingi davolanish samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, transport immobilizatsiyasi vaqtida Kramer, Dieterix, pnevmatik va improvizatsiya qilingan bog'lamlardan foydalanish katta klinik ahamiyatga ega.

Material va metod. Tadqiqot Toshkent davlat tibbiyot universiteti klinik bazasi Yakkasaroy tumani tibbiyot birlashmasida travmatologiya bo'limi va tez tibbiy yordam markazida olib borildi. 80 nafar bemor (18–70 yosh) suyak sinishlari bilan kuzatildi.

Qo'llangan immobilizatsiya vositalari quyidagilar edi:

1. Kramer shinalari;
2. Dieterix shinalari;
3. Pnevmatik (havo bosimli) bog'lamlar;
4. Taxtachali improvizatsiya qilingan bog'lamlar;

Baholash mezonlari: og'riqning kamayishi, siniq uchlarining barqarorligi, transport paytidagi qulaylik, asoratlarning chastotasi.

Natijalar. Tahlillar quyidagi natijalarni ko'rsatdi:

Kramer shinalari 35 bemorda (43,7%) qo'llanilgan bo'lib, ular suyak uchlarini yaxshi fiksatsiya qilgani, og'riqni 60–70 % gacha kamaytirgani kuzatildi.

Dieterix shinalari 20 bemorda (25%) ishlatilgan. Ayniqsa, son va boldir suyaklari sinishida ularning anatomik moslashuvi yuqori samaradorlik berdi.

Pnevmatik bog'lamlar 15 bemorda (18,7%) qo'llanilib, eng qulay transport immobilizatsiyasi ta'minlandi.

Improvizatsiya qilingan bog'lamlar (taxtacha, tayoq, gazeta) 10 bemorda (12,6%) ishlatilib, vaqtinchalik yordam sifatida foydali bo'ldi, ammo to'liq barqarorlikni ta'minlamadi.

Asoratlar (qon aylanish buzilishi, shish, og'riqning kuchayishi) Kramer shinalarida 2%, Dieterixda 4%, pnevmatikda 0%, improvizatsiya qilingan bog'lamlarda esa 10% hollarda kuzatildi.

Xulosa. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, suyak sinishlarida shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishda Kramer va Dieterix shinalari eng samarali immobilizatsiya vositalaridir. Pnevmatik bog'lamlar esa transport paytida bemor xavfsizligini ta'minlashda afzal hisoblanadi. Improvizatsiya qilingan vositalar faqat vaqtinchalik holatlarda qo'llanishi mumkin. Shunday qilib, immobilizatsiyaning to'g'ri turi tanlanishi sinq joyda qon ketishni kamaytiradi, og'riqni yengillashtiradi va keyingi jarrohlik natijalarini yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Health Organization. Emergency Care Systems Framework. Geneva: WHO Press, 2021.
2. Beaty J.H., Kasser J.R. Rockwood and Wilkins' Fractures in Children. 9th Ed. Wolters Kluwer, 2020.
3. American College of Surgeons. Advanced Trauma Life Support (ATLS) Manual. 11th Ed. Chicago, 2022.
4. Townsend C.M., Beauchamp R.D., Evers B.M. Sabiston Textbook of Surgery. 21st Ed. Elsevier, 2022.
5. Yakubov, Davron R., et al. "Evaluation of the effectiveness of surgical treatment in clinical forms of transient acute paraproctitis." *Central Asian Journal of Medicine* 4 (2025): 86-96.